



# “TISU IJTIMOIIY FANLARI VA INNOVATSION PEDAGOGIKA”

## ILMIY JURNALI

“TISU Ijtimoiy fanlari va innovatsion pedagogika” jurnali – Respublikadagi ijtimoiy fanlar, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, falsafa va tarix yo’nalishlarida izlanish olib borayotgan olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilar, Oliy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilari, ilmiy izlanuvchilar hamda magistrantlar, maktab va texnikumlarda faoliyat yuritayotgan o’qituvchilar, metodistlar va amaliyotchi pedagoglar, ta’lim sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga qiziquvchi mutaxassislarning ilmiy salohiyatini namoyon etuvchi maqolalari e’lon qilinadi.



**Muassis:**  
TERMIZ IQTISODIYOT VA  
SERVIS UNIVERSITETI

**TISU TIBBIYOT INNOVATSIYASI ILMIY  
JURNALI**

**Bosh muharrir:**  
Sattarov Abdusamat  
Umurqulovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Qobulov Eshbolta Atamuratovich

**Mas'ul kotib:**  
Allamuratov Shuxrat Ashurovich

**Dizayner:**  
Meyliqulov Shahboz  
Xolmamatovich

**Jurnal har chorakda bir marotaba  
chop etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligining  
2023-yil 1-martdagi  
№ 066379- raqamli guvohnomasi  
bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal "PRINTWELL" MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahri  
Muqimiy ko'chasi, 170/14

Bosishga ruxsat etildi:  
27.11. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8  
"Times New Roman" garnitiruasi.  
Ofset bosma.  
Ofset bosma usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i: 11.  
Adadi 10 nusxa.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Buyurtma № 1.

Jurnalning elektron shakli bilan  
<https://scientific.tues.uz>  
web saytida tanishish mumkin.

**Tahririyat manzili:**  
Surxondaryo viloyati,  
Termiz sh., "Yulduz" MFY,  
"Ibn Sino" ko'chasi.

## TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Bosh muharrir, Qabulov Eshbolta Atamuratovich –  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Tarix kafedrası professori, tarix fanlari doktori,  
Termiz, O'zbekiston. eshbolta\_qabulov@tues.uz

Bosh muharrir o'rinbosari – Salohiddinova Navro'za -  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,  
Termiz, O'zbekiston. navruza\_salohiddinova@tues.uz

Tarix fanlari muharriri Tursunov Nurillo Narzullayevich -  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Tarix kafedrası professori v.b, tarix fanlari doktori,  
Termiz, O'zbekiston. nurillo\_tursunov@tues.uz

Ijtimoiy fanlar muharriri, Tursunov Muxiddin Boltayevich –  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, sotsiologiya fanlari nomzodi,  
Termiz, O'zbekiston. muxiddin\_tursunov@tues.uz

Jismoniy madaniyat fanlari muharriri – Begimqulov Oltiboy  
Jo'rayevich - Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Jismoniy madaniyat kafedrası professori,  
Termiz, O'zbekiston. oltiboy\_begimqulov@tues.uz

Pedagogika fanlari muharriri – Narboshova Maqsuda Achilovna -  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,  
Termiz, O'zbekiston. maqsuda\_narboshova@tues.uz

Rus tili va adabiyoti muharriri – Sattarova Elena Anatolevna –  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Rus tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari  
falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston. elena\_sattarova@tues.uz

Ingliz filologiyasi muharriri – Urolova Oysuluv Poyon qizi -  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Ingliz tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari  
falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston. oysuluv\_urolova@tues.uz

# MUNDARIJA

## **G. E. TURAYEVA**

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy tarbiyalashda o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish.....3

## **G.T. JUMAYEVA**

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik yondashuv asoslari.....6

## **O.Ch.XOLOV**

Yosh avlodni tarbiyalashda aksiologiyaning ahamiyati.....10

## **N.M. SALOXITDINOVA**

Zamonaviy ta'lim sharoitida xorijiy tajriba va steam ta'limi.....14

## **B.X. ABRAYEV, I.N. XAYRULLAYEV**

Matritsalar va odam anatomiyasida fanlararo integratsiya va funksional o'xshashliklar haqida tizimli yondashuv.....17

## **M.Y.MADIEVA**

Translation strategies and linguistic adaptation of English brand names in Russian and Uzbek contexts.....22

## **S.Q. ESHBOYEVA**

4K yondashuv samarali ta'lim kafolati.....26

## **N.N. SHODIYEVA**

Erta nikoh qurishning oila mustahkamligiga ta'siri.....30

## **K.Sh.OLTIBOYEVA**

Shaxs intellektual rivojlanishi - pedagogik muammo sifatida.....34

## **U.A. TASHBAYEVA**

Talabalarda emotsional intellektni rivojlantirish orqali kommunikativ tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyalari.....37

## **M.Y.MADIEVA**

Brend nomlarining medialingvistik tahlili: o'zbek tilidagi milliy leksik birliklar asosida....41

## **R.D. NORQOBILOVA**

Pedagogik konfliktlarda gender omilining roli.....47

## **G'.A. MAMARAJABOV**

Surxon vohasi amaliy san'atning rivojlanishida hunarmandlar faoliyati.....50

## **F.A. ABDURAZZOQOV**

Mamlakatda maktabgacha yoshdagi bolalarning kuchli zilzila bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanishga tayyorlashning ta'sirchan va samarali mexanizmlari.....54

## **A.Ch. QOSIMOV**

Surxon vohasida an'anaviy qo'ychilik va ularning vohaga xos xususiyatlari.....58

## **M.X. FAYZULLAYEVA**

Tarixiy yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar qimmatli manba sifatida.....62

## **S.A. JABBOROVA**

Tarixiy yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar qimmatli manba sifatida.....67

## **F. YORMATOV**

Mamlakatimizda nuroniylarni ijtimoiy himoyalashning ustivor yo'nalishlari .....70

## **R. R. KHAMRAEVA**

Linguistic Creativity in Science Fiction Translation: from Asimov's Robots to Modern AI Narratives.....76

## **I.H. JUMAYEV**

"Qutadg'u bilig" dostonida insoniy nuqsonlarning badiiy ifodasi.....80

## **N.A. UMAROVA**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentli shakillantirish.....84

## **I.B. QARSHIYEVA**

Talabalarga jadidchilar asarlaridagi ma'rifiy qadriyatlarini o'rgatishning pedagogik shart-sharoitlari.....89

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Norqobilova Rayxona Davlatovna**  
E-mail: norqobilovarayxona70@gmail.com

## PEDAGOGIK KONFLIKTLARDA GENDER OMILINING ROLI

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada pedagogik muhitda yuzaga keladigan nizolar tahlil qilinib, ularning shakllanishida gender omilining o'rnini yoritilgan. Ayol va erkak shaxslarning nizoga kirishish sabablari, munosabatlar uslubi, konfliktga munosabatdagi farqlar, o'qituvchi-o'quvchi, o'qituvchi-o'qituvchi va o'qituvchi-otana o'rtasidagi gender asosli nizolar va ularni hal etish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, pedagogik konfliktologiyada gender yondashuvning ahamiyati va amaliy qo'llanilishi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** pedagogik konflikt, gender, ayol o'qituvchi, erkak o'qituvchi, shaxslararo munosabat, nizoli vaziyat, kommunikatsiya, ijtimoiy rol.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится анализ конфликтов, возникающих в педагогической среде, с освещением роли гендерного фактора в их формировании. Рассматриваются причины вступления женщин и мужчин в конфликт, особенности стиля взаимодействия, различия в отношении к конфликту, гендерно обусловленные конфликты между учителем и учеником, учителем и учителем, учителем и родителем, а также пути их разрешения. Кроме того, обсуждается значение гендерного подхода в педагогической конфликтологии и его практическое применение.

Ключевые слова: педагогический конфликт, гендер, женщина-учитель, мужчина-учитель, межличностные отношения, конфликтная ситуация, коммуникация, социальная роль.

### ABSTRACT

This article analyzes conflicts that arise in the pedagogical environment, highlighting the role of the gender factor in their formation. The reasons why female and male individuals engage in conflicts, their styles of interaction, differences in attitudes toward conflict, gender-based conflicts between teacher and student, teacher and teacher, and teacher and parent, as well as ways to resolve them, are examined. Additionally, the significance of the gender approach in pedagogical conflictology and its practical application are discussed.

**Keywords:** pedagogical conflict, gender, female teacher, male teacher, interpersonal relations, conflict situation, communication, social role.

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim tizimi insonparvarlik, tenglik va hamkorlik tamoyillariga asoslanadi. Shu bilan birga, ta'lim muhitida nizolar (konfliktlar) ning paydo bo'lishi tabiiy ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida qaraladi. Pedagogik konfliktlar - o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalar o'rtasida yuzaga keladigan muhim sotsiopsixologik hodisalardan biridir. Bu nizolar turli omillar, jumladan, gender omili ta'sirida shakllanadi.

Gender farqlari shaxslarning o'zini tutishida, muloqot uslubida, qaror qabul qilishda, muammoga munosabatda o'z aksini topadi. Shu sababli, pedagogik konfliktologiyada gender komponentini o'rganish o'ta dolzarb hisoblanadi.

**Metodologiya.** Gender - bu biologik jinsdan tashqari shaxsning ijtimoiy, psixologik va madaniy rollarini belgilovchi tizimdir. Jamiyatda

ayollarga nisbatan ko'proq hissiyotli, murosachil, mehribon, erkaklarga esa qat'iy, rahbarlikka moyil, mustaqil kabi sifatlar yuklatiladi. Bu stereotiplar shaxslararo munosabatlarda, xususan ta'lim jarayonida, nizolarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Konflikt esa - qarama-qarshi manfaat, qadriyat, ehtiyoj yoki pozitsiyalarning to'qnashuvi natijasida yuzaga keladigan shaxslararo yoki guruhlarning ziddiyatidir. Pedagogik muhitda bu holat o'qituvchi va o'quvchi, o'qituvchi va ota-ona, yoki o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatda namoyon bo'ladi.

**Natija.** Pedagogik muhitda gender asosli konfliktlarning asosiy yo'nalishlari

1. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi konfliktlar  
Ta'lim jarayonida gender farqlari o'qituvchi-



o'quvchi munosabatlarida ko'rinadi.

Ayol o'qituvchilar bilan o'smir o'g'il bolalar o'rtasida "avtoritet"ni tan olmaslik, hurmatsizlik yoki hissiy to'qnashuv holatlari kuzatiladi.

Erkak o'qituvchilar esa ko'proq intizomga e'tibor bergani uchun, qiz o'quvchilar bilan muloqotda sovuqlik yoki qat'iylik tufayli hissiy masofa paydo bo'ladi.

Bu holatlarni bartaraf etish uchun o'qituvchilar empatiya, emosional intellekt va moslashuvchan kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishlari lozim.

2. O'qituvchilar o'rtasidagi konfliktlar

O'qituvchilar jamoasi ichidagi nizolar ko'pincha gender psixologiyasiga xos tarzda kechadi:

Ayol o'qituvchilar o'rtasida emosional ziddiyatlar, ijtimoiy mavqe raqobati, rashk va tanqidiylik asosiy sabab bo'ladi.

Erkak o'qituvchilar o'rtasida esa rahbarlik uchun raqobat, mavqe va kuchni namoyish etish holatlari ustunlik qiladi.

Bunday nizolarni kamaytirish uchun jamoaviy qaror qabul qilish madaniyati, ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillarini mustahkamlash zarur.

3. O'qituvchi va ota-ona o'rtasidagi konfliktlar  
Pedagogik jarayonning yana bir muhim jihati - o'qituvchi va ota-ona o'rtasidagi muloqot.

Ayol o'qituvchi - erkak ota o'rtasida ko'pincha "avtoritet" va "tashabbus" masalalari bo'yicha ziddiyatlar yuzaga keladi.

Erkak o'qituvchi - ona o'rtasida esa sovuqlik, muloyimlik yoki noaniqlik noto'g'ri talqin qilinishi mumkin.

Bunday holatlarda professional masofani saqlash, samarali kommunikatsiya va gender neytral yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama. Gender asosli nizolarni kamaytirish yo'llari

Gender stereotiplarini bartaraf etish - "faqat erkaklar intizomni saqlaydi" yoki "ayollar his-tuyg'ulariga beriladi" kabi stereotip fikrlarni inkor etish.

Genderga oid savodxonlikni oshirish - o'qituvchilar va o'quvchilar uchun psixologik treninglar tashkil etish.

Muloqot madaniyatini rivojlantirish - har ikki jins vakillari o'rtasida tenglik, hurmat va hamkorlik asosida muhit yaratish.

Empatiya va faol tinglash - nizoli vaziyatlarda hissiy nazorat va tushunishni ustuvor qilish.

Jamoaviy qarorlar qabul qilish - gender balansini saqlagan holda teng ishtirokchilikni rag'batlantirish.

Monitoring tizimini yaratish - gender

diskriminatsiyasi holatlarini aniqlash va ularni bartaraf etish choralari ko'rish.

Ta'lim dasturlarini qayta ko'rib chiqish - o'quv materiallarida gender stereotiplarini kamaytirish, inklyuziv kontent yaratish.

Mentorlik tizimi - o'quvchi va o'qituvchilar o'rtasida genderga asoslangan qiyinchiliklarni yengishda yordam beruvchi mentorlik dasturlarini yo'lga qo'yish.

Gender bo'yicha ekspertlar bilan hamkorlik - ilmiy asoslangan yechimlarni ishlab chiqish.

Psixologik yordam tizimini kuchaytirish - stress va emosional zo'riqishni kamaytirishga qaratilgan xizmatlarni rivojlantirish[7].

Pedagogik muhitda shaxslararo munosabatlar murakkab psixologik jarayonlar asosida kechadi.

O'qituvchi yoki o'quvchi o'z jinsiga xos ijtimoiy rolni ongli yoki ongsiz ravishda namoyon etadi. Shu bois, konflikt jarayonida hissiy reaksiya, emosional nazorat, o'zini ifoda etish uslubi va muloqotdagi ustuvorlik genderga bevosita bog'liq bo'ladi[6]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki:

Ayol o'qituvchilar ko'proq emosional tahlilga, tushunishga va murosaga moyildirlar. Ular nizoni hal etishda "yumshoq diplomatiya" uslubidan foydalanadi.

Erkak o'qituvchilar esa muammoni mantiqiy, qoidaga asoslangan va tezkor yechim orqali hal etishga intiladilar. Ularning yondashuvi ko'proq "direktiv" xarakterga ega bo'ladi.

Bu farqlar o'z-o'zidan salbiy emas. Aksincha, pedagogik jamoada ayol va erkak yondashuvlarining uyg'unligi muvozanatni ta'minlaydi. Shuning uchun ta'lim muassasalarida gender jihatdan xilma-xil jamoa shakllantirish pedagogik iqlimni yanada boyitadi[1].

Ko'pgina jamiyatlarda, jumladan, bizning milliy an'analarimizda ham jinsiy rollar bo'yicha qat'iy ijtimoiy tasavvurlar mavjud. Masalan:

"Erkak rahbarlik qiladi, ayol esa itoat etadi" degan qarash;

"Ayolning qattiqqo'l bo'lishi to'g'ri emas" degan stereotip;

"Qiz bolalar matematik fanlarga qiziqmaydi" kabi xatoli fikrlar.

Bu kabi stereotiplar ta'lim muhitida ham aks etib, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida bilvosita diskriminatsiya, adolatli baholamaslik, motivatsiyaning pasayishi yoki nizo holatlariga olib keladi. Gender tenglikni ta'minlash uchun avvalo: ta'lim dasturlarini qayta ko'rib chiqish; o'quvchi va o'qituvchilar o'rtasida genderga oid savodxonlikni oshirish; ijtimoiy stereotiplarga qarshi madaniy-ma'rifiy tadbirlarni yo'lga qo'yish

zarur.

Pedagogik konfliktologiyada gender omilini tahlil qilish uchun bir necha ilmiy yondashuvlardan foydalaniladi:

Psixologik yondashuv - shaxsning hissiy-irodaviy sifatleri, kommunikativ kompetensiyasi, empatiya darajasi tahlil qilinadi.

Ijtimoiy-psixologik yondashuv - jamoa ichidagi rollar taqsimoti, rahbarlik, hamkorlik va gender asosidagi ta'sir tahlil qilinadi.

Pedagogik yondashuv - o'quv-tarbiyaviy jarayon, darsda o'zaro munosabatlar, baholashdagi adolat, rag'batlantirish uslublari gender nuqtai nazaridan baholanadi.

Kognitiv yondashuv - o'qituvchi va o'quvchining fikrlash uslubi, qaror qabul qilishdagi tafovutlar o'rganiladi. Mazkur yondashuvlar asosida pedagogik muhitda yuzaga kelayotgan konfliktlarning manbaini aniqlash va ularni ilmiy asosda boshqarish imkoniyati yaratiladi[2].

Pedagogik muassasada gender asosidagi konfliktlarni kamaytirish nafaqat psixologik, balki tashkiliy darajadagi islohotlarni ham talab qiladi. Quyidagi mexanizmlar bu borada samarali bo'lishi mumkin:

Gender tenglik komissiyalarini tashkil etish. Ular jamoa ichidagi muammolarni o'rganadi, tahlil qiladi va profilaktik choralar ko'radi.

Psixologik maslahat markazlari. O'qituvchi, o'quvchi va ota-onalar uchun genderni o'zgarish stress, stereotiplar yoki diskriminatsiya holatlarida yordam ko'rsatadi.

Motivatsion dasturlar. Ayol o'qituvchilarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlash, erkak o'qituvchilarni emotsional kompetensiya bo'yicha rivojlantirishga yo'naltirilgan treninglar o'tkazish. Tenglikka asoslangan baholash tizimi. O'quvchilarning yutuqlarini faqat bilim emas, balki ijtimoiy faoliyat, muloqot va hamkorlik ko'nikmalari orqali baholash.

Ta'limda gender indikatorlarini joriy etish. Maktab yoki kollejda gender muvozanatini o'lchaydigan maxsus indikatorlar ishlab chiqish (masalan, lavozimdagi erkak/ayol nisbati, baholashdagi adolat ko'rsatkichi va h.k.)[3].

Toshkent shahridagi bir nechta umumta'lim maktablarida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra: O'qituvchilarning 62% i "gender stereotiplari" ba'zi o'quvchilar bilan muloqotda to'siq bo'lishini tan olgan.

38% ayol o'qituvchi o'smir o'g'il bolalar bilan muloqotda muammoga duch kelishini bildirgan.

Erkak o'qituvchilarning 41% i esa qiz o'quvchilarni faollikka undashda qiyinchilik sezishini qayd etgan. Bu raqamlar ta'lim muhitida genderni

oid ongni oshirish, treninglar tashkil etish va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi[4].

Pedagogik jamoalarda gender asosidagi nizolarni oldini olish uchun quyidagi strategik yo'nalishlar tavsiya etiladi:

Profilaktik ta'lim - gender madaniyatini o'quv dasturlariga kiritish, yoshlar ongida tenglik qadriyatini shakllantirish.

Ko'p tomonlama muloqot - o'qituvchi, o'quvchi, ota-ona va ma'muriyat o'rtasida ochiq kommunikatsiyani ta'minlash.

Mediatorlik tizimi - nizolarni hal etishda gender neytral vositachilar (psixolog, metodist, mentor) xizmatidan foydalanish.

Motivatsion inklyuziya - har bir jins vakilining o'z salohiyatini namoyon etishiga sharoit yaratish.

Jamoa madaniyatini mustahkamlash - o'zaro hurmat, tenglik va birdamlikka asoslangan "korporativ etika"ni shakllantirish[5].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, pedagogik muhitdagi nizolarning ko'p qismi yashirin tarzda gender omili bilan bog'liq bo'ladi. Ayol va erkak o'qituvchilar, shuningdek o'quvchilar o'rtasidagi genderni o'zgarish farqlarni anglash - ta'lim muhitini sog'lomlashtirish, o'zaro hurmat va tenglikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Pedagog o'zining ijtimoiy rolini to'g'ri anglab, gender stereotiplaridan xoli tarzda faoliyat yuritishi, konfliktlarni soni kamayadi va sog'lom, ijobiy muhit shakllanadi. Shu tariqa gender yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim tizimi - inklyuzivlik, adolat va o'zaro hurmat tamoyillarini mustahkamlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimova, M. Pedagogik psixologiya. Toshkent: "Ilm Ziyo" nashriyoti, 2021.
2. Murodova, D. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi kommunikatsiya. Toshkent, 2020.
3. Tajibayeva, N. Pedagogik konfliktologiya asoslari. Toshkent, 2019.
4. Abdullayeva, G. Gender psixologiyasi. Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2022.
5. Yusupova, Z. Ta'limda gender tenglik tamoyillari. Samarqand, 2021.
6. G'anieva, S. Pedagogik etikada gender yondashuv. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
7. Rahimov, A. Ijtimoiy psixologiya va konfliktologiya. Toshkent, 2018.